



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT
INTEGRATSIYASI

Komil Haydarov

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

PEDAGOGIK MAHORAT – O'QITUVCHI KASBIY STANDARTINING UZVIY TARKIBIY QISMI

Annotatsiya. Maqolada pedagogik mahorat – o'qituvchining kasbiy standarti tarkibida belgilovchi omillardan biri ekanligi, ta'lim islohotlari jarayonida uni takomillashtirish bilan bog'liq muhim vazifalar to'g'risida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim islohotlari, kasbiy standart, pedagogik mahorat, bilim, malaka, ruhiy tayyorgarlik, g'oyaviy tayyorgarlik, mustaqil ishslash.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida kasbiy standartlar masalasiga ustuvor ahamiyat berilayotgani beziz emas. Bunda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustdagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni hamda Prezidentimizning 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son Qarori [1.3] huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. "Profstandart.uz" kasbiy standartlar ochiq portalining ishlab chiqilishi esa ushbu yo'nalishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunda “kasbiy standart – malaka va bilimlarning darajasiga, mehnatning mazmuniga, sifatiga va shart-sharoitlariga doir talablarni belgilaydigan, asosiy mehnat vazifalari tavsifini va ularni bajarish shartlarini o‘z ichiga olgan standart”[1.1], deb ta’rif berilgan. Boshqacha aytganda, kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan turini (masalan, o‘qituvchilik kasbini) amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malaka tavsifini ifodalaydi.

O‘qituvchining kasbiy standarti tarkibida pedagogik mahorat muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda – mamlakatimizda uzlusiz ta’lim islohoti jadallik bilan olib borilayotgan paytda pedagogik mahoratni oshirish muhim omil sifatida qaralmoqda. Qolaversa, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da ta’limning sifati va mazmunini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [1.2].

Pedagogik mahorat deganda, o‘qituvchining o‘z funksional vazifalariga ijodiy yondashuvi, umuman, ta’limga innovatsion yondashuvi, ta’lim-tarbiyaning eng qulay, samarali shakl va vositalarini qidirib topish va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qila olishini tushunamiz. Shuning uchun pedagogik mahorat o‘qituvchining imidji (qiyofasi)ni belgilovchi eng muhim omildir.

Xalqimizning boy va betakror ma’naviy merosi namunalari hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni chuqur bilish hamda ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish ham o‘qituvchidan pedagogik mahoratni talab qiladi. Shu yilning aprel oyida ushbu maqola muallifi tomonidan mavzuga doir online so‘rovnomaga o‘tkazildi. Unda ishtirok etgan turli yosh va ma’lumotga ega bo‘lgan 758 nafar respondentga “Ma’naviy merosimiz namunalaridan keng foydalanish ta’lim jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?” deb murojaat qilinganda respondentlarning aksariyat ko‘pchiligi – 94,3 foizi “ta’lim sifati va mazmunini oshiradi” degan javobni berdi. “Milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni maktab ta’limi mazmuniga singdirishda qaysi omil muhim?” degan savolga respondentlarning 91,4 foizi “o‘qituvchining pedagogik mahorati” deb javob bergani asosida xulosa qilish qiyin emas: bugungi o‘qituvchi ma’naviy qadriyatlarimizni chuqur bilishi va ularni ta’lim mazmuniga singdirib yubora oladigan mahoratga ega bo‘lishi kerak!

Bugun ta’limning muhim bo‘g‘inlaridan biri - malaka oshirish pedagogik mahoratni oshirishning bir butun, yaxlit jarayoni bo‘lib, uning pirovard natijasi o‘qituvchining improvizatsion xususiyatlarini rivojlantirishgina emas, balki eng avval pedagogik-psixologik, metodik va mafkuraviy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar qaror topishiga erishishdan iborat bo‘lishi lozim.

Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchi ta’limning eng zamonaviy, ilg‘or shakl va uslublarini puxta egallashidan tashqari davlatimizning ta’lim sohasida olib borayotgan siyosatining mazmun-mohiyatini, umuman, demokratik islohotlarning ta’lim ravnaqiga ta’sirini ham chuqur bilishi, tafakkuri, mushohada va nutq madaniyatini oshirishga ham intilishi lozim. Chunki ta’limning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqligi sir emas.

Malaka oshirish tizimidagi islohotlarda aynan shu nazarda tutiladi. Bugun o‘z malakasini oshirmoqchi bo‘lgan o‘qituvchi metodik mukammalikka erishish barobarida g‘oyaviy va ruhiy tayyorgarligini oshirishi, tafakkurini, ijodkorlik xususiyatlarini boyitib borishi talab etiladi. Hozirgi kunda Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markaziga har oyda o‘rtacha 900 nafar tinglovchi malaka oshirish kursiga keladi. Ularning ixtiyorida 48 ta o‘quv auditoriyasi, 4 ta o‘quv laboratoriyasi, 210 o‘rinli tinglovchilar turar joyi, 3 ta sport zali va maydoni, 3 ta majlislar va konferensiya zali, amfiteatr, axborot-resurs markazi va 3 ta oshxona mavjud. Ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish maqsadida 342 ta kompyuter, 38 ta videoproyektor va 6 ta elektron doskadan foydalanilmoqda. Markazda 122 nafar pedagog kadr faoliyat ko‘rsatadi. Ilmiy salohiyat 48,1 foizni tashkil etadi.

O‘qituvchining kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi bugun davr taqozosiga aylandi. Lekin malaka oshirish jarayoni – bu o‘qituvchining barcha nuqsonlardan xalos bo‘lishi degani emas. Bunda “qars - ikki qo‘ldan” degan tamoyil mavjud bo‘lishi kerak. O‘z ustida tinmay ishlamas ekan, o‘zini “qiynashni” istamas ekan, o‘qituvchi nuqsonlardan qutula olmaydi.

O‘qituvchining besh yilda, rahbar xodimlarning esa uch yilda bir marta 144 soat hajmida malaka oshirish amaliyoti o‘zini oqlamadi, ya’ni bunday yondashuv davr talablariga mos kelmay qoldi. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish hududiy

markazlari, shuningdek, pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan malaka oshirishning turli xil muqobil shakllari, pedagogik tayyorgarlik modullarini joriy qilish asnosida “hayot davomida o‘qish” tamoyilini amaliyotga tatbiq etish vazifalari belgilanganligi [1.4] va ularning hayotga joriy etilishi masalaning yechilishi sari tashlangan muhim qadam bo‘ldi.

Kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugun mакtabning o‘zi malaka va mahoratni oshirish o‘chog‘i bo‘lishi lozim. Har bir maktabda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovatsion usullarni keng joriy qilish, o‘zaro tajriba almashish, jamoatchilik nazorati, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish ishlari yuqori saviyada tashkil etilgan bo‘lishi kerak, bir so‘z bilan aytganda, maktabda hayot “qaynashi” zarur.

Pedagogik mahorat o‘qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. O‘qituvchining ilmiy tadqiqot ishlariga o‘rganishi uning o‘z ustida ishlashida muhim omildir. Mahoratl o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish barobarida tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Albatta, agar u davriy nashrlarga maqolalar yozib tursa, loyihalar, grantlarda ishtirok etsa, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilsa uning mahorati oshib borishi shubhasiz. Ilgari o‘qituvchi majburiy mehnatga jalb etilib, o‘z ustida ishlashiga vaqt topolmas edi. Endilikda bunga barham berildi, mustaqil ishslashga vaqt ham, imkoniyat ham bor. Buni to‘g‘ri anglab yetgan o‘qituvchilar o‘z ustida ishslashga o‘rganmoqdalar. Ushbu amaliyotni keng targ‘ib qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020., 03/20/642/1396-son.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2019-yil 29-aprel. 06/19/5712/3034-son.
2. “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining Qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020., 07/20/4939/1703-son.

3. “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2021-yil 26-yanvar. 07/21/4963/0064-son.